

ISSN: 2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION
AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN

TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED
EDUCATION AND
RESEARCH**

ISSN 2181-3558

VOLUME 2, ISSUE 6

COLLECTION B

JUNE 2023



Tahririyat a'zolari
Editorial board

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva S.R. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent

Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent
Dexqonova M.Sh. f.f.d.
Hasanov A.M. fil.f.d.

Mas'ul kotib: M.Yusupov

AHMAD TAROZIY VA SANOYI' ILMLARI

Bekmurod Boyzoqov
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada turkiy tildagi ilk nazariy manba hisoblangan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarining kompozitsiyasi, uning har bir bo'limi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, fors adabiyotshunosligida muhim manbalardan bo'lgan Muhammad ibn Umar Rodiyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam" va Atoullloh Husayniyning "Badoye' us-sanoye'" asarlari bilan qiyosiy aspektda o'rganilgan. g'

Kalit so'zlar: Sharq poetikasi, ilmi bade', aruz ilmi, qofiya, radif, badiiy san'atlar, she'r janrlari, muammo.

Abstact. The article talks about the composition of the work "Funun ul-Balogha" by Sheikh Ahmad Tarazi, which is considered the first theoretical source in the Turkish language, and about each of its sections. Also, it is studied in a comparative aspect with the works of Muhammad ibn Umar Rodiyani, "Tarjiman ul-Balogha", "Al-Mojam" by Shams Qays Razi, and "Badoye' us-Sanoye" by Atullah Husayni, which are important sources in Persian literature.

Keywords: Oriental poetics, science of bade', science of aruz, rhyme, radif, fine arts, poetry genres, problem.

Turkiy adabiyot qadimdan mavjud bo'lsa-da, adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarning shakllanishi ham shu davrlardan shakllangan. Adabiyotshunoslikning ilk elementlari turkiy adabiyot namunalarida bo'lsa-da, bu sohaga doir bizgacha yetib kelgan ilk nazariy manba bu Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari hisoblanadi.

"Funun ul-balog'a" 1437-yili yaratilgan va Amir Temurning nevarasi, Movarounnahrning o'sha paytdagi hukmdori Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek ibn Shohruh Mirzoga bag'ishlangan. [1,9] Taroziyning mazkur asari o'z davridagi adabiy hayot ehtiyoji va talablari asosida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Chunki forsiy tilda she'r yozadigan iste'dod egalari, xususan, havaskor ijodkorlar uchun she'r qoidalari – aruz vazni, qofiya, she'riy san'atlar, she'rlarning janr xususiyatlari haqida kitoblar, turli qo'llanmalar ko'p edi. Turkiy tilda esa she'r va boshqa badiiy asar yozishga qiziqqan iste'dodli kishilar uchun bunday ilmiy qo'llanma, risolalar yo'q edi. O'zbek tilida asar yozishga, o'zbek adabiyotini boyitishga, uni rivojlantirishga bel bog'lagan qobiliyat egalari esa temuriyzoda Mirzo Ulug'bek davrida tobora ko'payib borar edi. Binobarin, Taroziyning bu asari o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'langan edi.

Asardan anglashiladiki, Shayx Ahmad fors-tojik shoirlari ijodini juda yaxshi bilgan, ular asarlarining eng mukammal va mo'tabar qo'lyozma nusxalaridan foydalangan. Turkiydagi she'riy parchalar, ba'zi badiiy san'atlarning misoli uchun keltirilgan bayt-u misralar aksariyat holda Taroziy qalamiga mansub hisoblanadi.

Asar muqaddima hamda alohida nomlangan besh qismdan iborat bo'lib, ular muallif tomonidan muqaddimaning so'ngida quyidagicha ma'lum qilingan: 1. She'r qismlari va she'riy janrlar muammosi. Mazkur qismda shayx Ahmad Taroziy she'r nav'lariga to'xtalib, ularni shakl va mavzu jihatdan tahlil qiladi hamda o'nta she'riy shaklning ta'rifini keltiradi. 2. Qofiya va radif muammolari. Ushbu qismda muallif qofiya hamda radifni nazariy jihatdan o'rganadi, ushbu she'r unsurlarini chuqur va puxta sharxlab, qofiyaning 5 ta (mutavotir, mutarodif, mutadorik, va mutakovis), keyinchalik fors olimlari qo'shgan 3 (mutasoviy, mutarojih, mutazjiyd) – jami 8 ta turini tushuntirib beradi. 3. Badiiy san'atlar muammosi. Ushbu qismda musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida "ilmi badi'" deb nomlangan sohaga tegishli bo'lgan she'riy san'atlar tadqiq qilinadi; jami 97 ta badiiy san'at sharhlanib, arab, fors va turkiy tilda yozilgan she'rlardan misollar keltiradi. 4. Aruz vazni muammolari. Risolaning ushbu qismida aruz tizimiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif aruz bahrlarini tadqiq qiladi. 5. Muammoning usul va qoidalari haqida. Mazkur qismni o'z ichiga oluvchi sahifalar bizga ma'lum qo'lyozmada mavjud emas. Devin de Uisning aytishicha, "Funun ul-balog'a"ning mazkur nusxasi kuchli bo'ronda yoqqan yomg'irda ko'plab qo'lyozmalar qatori jiddiy shikastlangan. [2,270]

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" risolasi turkiy mumtoz poetika olamida alohida mavqe va ahamiyatga ega asardir. Avvalo, risolaning turkiy tilda bitilganligi eng ustuvor xususiyat hisoblanadi. Shu ma'noda "Funun ul-balog'a" o'zidan keyin yaratilgan turkiydagi ko'plab adabiy-nazariy manbalar uchun asos vazifasini o'tadi. Jumladan, bugungi mumtoz adabiyotshunoslik masalalarini yorituvchi qo'llanma, darslik va ilmiy risolalarning tub ildizlari Taroziy qarashlariga bilan mutanosib.

Shayx Ahmad o'tmishdoshlarining nazariyaga oid asarlarini diqqat bilan o'rganib chiqqan va ularning ustun jihatlari olgan yoki kamchiliklarini to'ldirishga harakat qilgan. Masalan, o'tmishda yaratilgan adabiyot nazariyasiga doir ko'p asarlar ma'lum bir adabiy turni qamrab olgan bo'lsa, muallif esa barcha turlariga to'xtalib o'tadi.

"Funun ul-balog'a"ni fors adabiyotshunosligiga oid bir qancha nazariy manbalar bilan qiyoslashimiz mumkin. Quyida shu xususda so'z yuritamiz.

Muhammad ibn Umar Rodiyoniyning "Tarjimon ul-balog'a" asari. "Tarjimon ul-balog'a" asarida muallif haqida ma'lumot uchramaydi. Umar Rodiyoniyning bizgacha yetib kelgan yagona hisoblangan asari XI asarning 80-yillarida yozilgan. Asar arab tilida yozilgan Imom Nasr ibn Hasan Marg'inoniyning "Mahosin ul-kalom" asari ta'sirida yaratilgan. Muallifning o'zi asar so'zboshisida buni alohida ta'kidlab o'tgan. "Va ommal bobhoi in kitobro dar tartibi fusuli "Mahosin ul-kalom", ki Xoja Imom Nasr ibn al-Hasan... nihodaast, taxrich kardam va az tafsiri vay misol giriftam va laqabashro "Tarjumon ul-balog'a" ixtiyor kardam". [3,145] "Tarjimon ul balog'a"da 73 ta badiiy san'atlar tasnif qilinib, Qur'oni Karim va Hadisi sharif bilan birga arab va fors shoirlari ijodiga ham murojaat qilinadi. 60 ga yaqin shoirlar she'rlaridan namunalar keltiriladi. Haqiqatan, risolada nazariy fikrlarning isboti tariqasida, arab tilidagi asarlardan farqli ravishda, fors tilining

badiiy imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatib beruvchi shu tilning ijod mahsullaridan misollar keltiradi. Olimlar bu asar fors tilida shu turda yaratilgan keyingi asarlar uchun asos bo'lganini ta'kidlaydilar.

Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajam" ("Fors she'riyatining qoidalari jamlanmasi") asari. "Al-mo'jam" asari Muqaddima, 2 asosiy qism va xotimadan iborat. Asarning birinchi qismi aruz ilmiga bag'ishlangan bo'lib, 4 bob asosida aruz ilmi nazariyasi tushuntiriladi. [4,12] To'rt bobning dastlabki bobi aruz istilohining izohiga bag'ishlangan bo'lib, olim istilohlarni sharhlashda ma'lum tartibga rioya qiladi.

Dastlab, bu istilohlarning asl lug'aviy ma'nosini keltirib, so'ng atama sifatidagi ma'nolarini tushuntiradi. Ikkinchi bobda rukn, juzv va vaznlar baytlar misolida izohlanadi. Birinchi qismning uchinchi bobida esa zihoflar, tarmoq ruknlar tahlilga tortiladi. To'rtinchi bobda aruz doiralari, qadim va hadis bahrlarga oid nazariy ma'lumotlar baytlar va ularning taqti'lari asosida tahlil qilinadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Qays Roziy o'zigacha bo'lgan davrlarda yaratilgan arab va fors tilidagi aruz ilmiga oid deyarli barcha risolalar bilan tanish bo'lgan, ularga murojaat qilgan, bahsga kirishgan. "Al-mo'jam"ning ikkinchi qismi esa qofiya hamda badiiyat ilmiga bag'ishlangan. Qays Roziy birinchi qismdagi an'anani davom ettirgan holda dastlabki bobda she'riyat va qofiya, radif istilohlari, qofiyaning she'riyatdagi ahamiyati, qo'llanish o'rinlari borasida ma'lumot beradi. [5,145]

Atoullloh Husayniyning "Badoye us-sanoye" asari. Ushbu risola muallifi Alisher Navoiyning zamondoshi va ustoz Atoullloh Husayniydir. Asar ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lib, uni yaratishda faqat arab balog'atshunos olimlarining asariga tayanmay, o'ziga bo'lgan bo'lgan forsiy manbalardan ham yaxshi xabardor bo'lib, ulardan foydalanganligi biz yuqorida nomlari aytgan manbalardan afzaldir.

Asarda muallif arab balog'atshunoslari kabi balog'at ilmini ma'oniy, bayon va badi' emas, lafziy go'zalliklar, ma'naviy go'zalliklar va lafziy-ma'naviy go'zalliklar deb guruhlaydi. Bu haqda Atoullloh Husayniy shunday deydi: "nutq go'zalliklari uch qism bilan cheklanur ul jihatkim, har go'zallik yo ma'no go'zalligidir, yo lafz go'zalligidur yoxud lafz-u ma'no go'zalligining yig'indisining go'zalligidur". [6,34] Atoullloh Husayniyning "Badoyi' ussanoyi" asari ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lsa-da, uning "Muqaddima"sida keltirilgan aruz ilmi bilan bog'liq qarashlari ko'z oldimizda muallifning yetuk aruzshunos sifatida gavdalantiradi.

Mazkur asar debocha, muqaddima, 3 san'at turi va xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima aruz vazni va zihoflari xususida bo'lib, 1-bobda 60 ta lafziy san'at, 2-bobda 63 ta ma'naviy san'at, 3-bobda 23 ta lafziy-ma'naviy san'at to'g'risida ma'lumot berilgan. Xotima 2 qismdan iborat: birinchisida she'rning ma'no bilan bog'liq illatlari haqida fikr yuritilib, 2-bobda 15 ta atamaga izoh berilgan.

Shayx Ahmad Taroziy va fors fors tilida yaratilgan ilmiy risolalar (aynan Umar Rodiyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam ma'oyiri ash'ori fil Ajam" va Atoullloh Husayniyning "Badoye' us-

sanoye” asarlari) bilan muqoyasa qilib, quyidagi xulosalarni qilishimiz mumkin: “Funun ul-balog‘a” asari semantik-struktur jihatdan boshqa risolalardan keng diapozonni qamrab olishi bilan farqli va ayni shu jihati boshqa asarlardan ko‘ra universal risola ekanligiga da’vo qiladi. Ya’ni “Tarjimon ul-balog‘a” va “Badoye’ us-sanoye” asarlari mumtoz poetikaning aynan badi’ ilmi yoki aruz ilmiga bag‘ishlangan bo‘lsa, Ahmad Taroziyning asari esa ilmlar uchligi (arzu ilmi, qofiya ilmi va badi’ ilmi) haqida so‘z yuritadi. Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asari bu borada “Funun ul-balog‘a” bilan bahslashga oladigan asar. Ammo ushbu asarlarda “Funun ul-balog‘a”dagi kabi she’rlarning janr xususiyatiga tafsil to‘xtalmagan. Umar Rodiyoniy o‘z asari haqida Imom Nasr ibn Hasan Marg‘inoniyning “Mahosin ul-kalom” asari ta’sirida yaratilganini ta’kidlab o‘tsa, “Al-mo‘jam” esa Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr”, Bahromi Saraxsiyning “G‘oyat ul-aruzayn” asarlaridan foydalangan bo‘lsa, “Badoye’ us-sanoye”da esa o‘z nazariy qarashlarini ifoda etishda “Al-mo‘jam” va Nosiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarlariga qayta-qayta murojaat qilinadi. “Funun ul-balog‘a”da Ahmad Taroziy o‘ziga bo‘lgan davrdagi barcha arabiy-forsiy manbalardan xabardorligi sezilsa-da, aynan biror risolani tilga olmasligi muayyan bir asarni asos qilib olmaganidan dalolat beradi. Ya’ni muallif salafining nazariy qarashlarini tanqid qilib, bahsga tortmasdan, barchasini umumlashtirish yo‘lidan boradi. Ahmad Taroziyning asarida nazariy qarashni quvvatlash uchun o‘tmishdoshlari kabi Qur’oni karim, Hadisi sharif, arabiy hikmatli so‘zlar va forscha she’riy parchalar havola etishi bilan yuqorida forsiy manbalar bilan bir xillikni kasb etsa-da, turkiy tilda yaratilgani uchun turkiy tildagi parchalarni ham keltirib, uch xil tildagi manbalar orqali xilma-xillik kasb etgan.

Adabiyotlar

1. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. – T.: Xazina, 1996.
2. O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik elektron jurnali, № 4(23)/2018. Yusupova D. “Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida turkiy aruz masalasi”.
3. Muntaxabi “Tarjimon ul-balog‘a” va “Hadoyiq us-sehr”. – D.: Donish, 1987.
4. Shamsi Qaysi Rozi, Al-Mo‘jam/tahiyagar va muallifi lug‘ot va tavzehot U Toirov. – D.: Adib, 1991.
5. Meros Sharqshunoslik, 2/2020. Orzigul Hamrayeva. Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam fi ma’oyiri ahs’or al-ajam” asari tadqiqi.
6. Atoulloh Husayniy. Badoyi’ us-sanoyi’. Forschadan A.Rustamov tarjimasini. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.

TURLI YOSHDA OILA QURGAN QIZLARNING OILAGA MOSLASHUVINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Rahimova Matluba Berdali Qizi
Ish (o'qish) joyi

Annotatsiya. Ushbu maqolada har xil yoshdagi qizlarning turmush qurganda hamda ungacha bo'lgan vaqtdagi vaziyati, ko'nikmalari, bunga ham tabiatan ham jismonan tayyorligi bilan birgalikda oila tushunchasi, undagi majburiyatlar, oiladagi o'rin hamda vazifalar haqida tushunchalar va oilaga moslashuvining ijtimoiy va psixologik omillari haqida so'z yuritiladi va ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-psixologik omillar, oila masalasi, oila tashkilotlari, yosh avlod, kattalar tazyiqi, ruhan tayyor bo'lish, oila majburiyatlari, turli yoshda turli ko'nikmalar, hayot majburiyatlari, mustahkam oila.

Dunyoga kelibmizki vaqtlar o'tishi va insonning o'sishi, uning fikrlash doirasi kengaygani qadar bilim va ko'nikmalari ham oshib boradi. Shu tariqa odamzot o'sib ulg'ayadi. Tanishlar, do'stlar orttiradi va shu chog'da o'ziga mos bo'lgan juft ham izlaydi desak adashmagan bo'lamiz. Oila qurish, o'sha muhitga moslashish, hamma bilan birdek bo'lish, har narsaga ulgurish, uy ishlari, o'qish va oilani birdek olib ketish yengil narsa emas hamda buni o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud. Oila qurishda, undan keyingi hayotda har ikkala tomondan katta mas'uliyat hamda qaysidir ma'noda sabr talab qilinadi desak to'g'ri bo'ladi. Sababi hayot birdek tekkis ketmaydi hamda uning o'z qiyinchiliklari bo'ladi va shu damda sabr, kuch-quvvat ila o'ta olgan har bir inson o'z yo'lini topib, haqiqiy oila baxtiga erisha oladi. Albatta, bunda juftlikning faqat bir tomoni harakat qilishi talab etilmaydi. Sog'lom munosabatlarda har ikkala tomonning o'z vazifa va majburiyatlari mavjud bo'ladi. Ularni esa oila a'zolarining o'zlari o'zaro ichki masala tarzda taqsimlab olishadi. Jamiyatimizda shu o'rinda hamma teng va birdek huquqga ega. Onalik, bolalik davlat tomonidan himoyaga olinadi va yordam qilinadi. Bunday ko'rinishdagi masalalar uchun tegishli organlar hamda tashkilot va masalani ko'rib chiquvchi omillar mavjud yurtimizda. Yosh oilalar ajrimi ko'paymasligi, oila mustahkamligi, hamda bu uchun kerakli bo'lgan barcha ishlarni ta'minlash hamda barqarorlashtirish uchun qadim zamondan ham birdek harakat qilib kelinadi. Jamiyatimizda har bir insonning o'z o'rnini hamda huquq va majburiyatlari mavjud. Hamma davlat tomonidan himoyaga olingan hisoblanadi. Qizlarni yosh hamda majburlab turmushga berish og'ir ko'rinishdagi jinoyat hisoblanadi hamda davlat tomonidan jazo tayinlanadi va qizlar himoya qilinadi. Taraflarning, oila qurmoqchi bo'lgan har bir insonning erki hamda tanlash huquqi o'zi qo'lida. Ularni majburlash, tazyiq o'tkazish og'ir jinoyat hamda kelajak avlod uchun ham sezilarli darajada zarar hisoblanadi. Davlat, yosh avlod tazyiq ostida ish ko'rishsa hechqachon rivojlanish bo'lmaydi. Bu psixologik jihatdan ham kattadan katta muammolar keltirib chiqazadi. Ba'zi bir qizlar erta ba'zilar esa kech rivojlanadi ya'ni oila qurish masalasi bo'yicha. Kimdirlar tabiatan tayyor bo'lishsa, yana kimdirlar buni xohlashmaydi. Oila, turmush qurish, bola shunga o'xshash

vaziyatlar turli yoshda har xil ya'ni har xil tushunchali bo'ladi qizlarda. Oila muhim masala hisoblanadi, har muammoga duch kelganda ajrashish yokida yomon oqibatlarga olib kelish ko'proq yoshlarda uchraydi. Sababi esa ular hali oila qurishga tayyor hisoblanmaydi. Turmushga berishdan avval, har bir ota-ona o'z farzandlariga nafaqat qizlariga balki o'g'il farzandlar uchun ham kerakli, hayotiy bo'lgan maslahatlar berishlari shart va darkor. Ular qachonki oila qanchalik muhim masala ekanligini tushinib yetishsagina unga yengil qarashmaydi hamda oilani qadriga yetib, uni mustahkamlashadi. Erta oila qurish, kech oila qurish insonlarning fikri, tabiatan rivojlanishlariga katta miqdorda bog'liq hisoblanadi. Har ikkalasi ham noto'g'ri emas, sababi esa insonlar har xil sharitda hamda turli xil vaziyatlarda katta bo'lishadi. Shu sababdan ham har kimni o'z fikri hamda dunyo qarashi har xil bo'ladi. Ularni majburlash masalani yechimi bo'lib hizmat qilmaydi, balki aksincha muammoni kattartiradi xolos. Mana shunday vaziyatlar uchun psixologik markazlar hamda yosh qizlar uchun, ular bilan fikr almashib to'g'ri maslahatlar beradigan markaz hamda tashkilotlar ochilgan. Ularni oldiga tashrif buyurgan har bir kishi uchun o'z maslahatlarini ayashmaydi hamda masalani yechimini topish uchun yordam berishadi. Endi esa turli yoshdagi turli tushunchalar ya'ni oila haqidagi tushunchalarga to'xtaydigan bo'lsak, yosh qizlarda tajriba hamda hayot qiyinchiliklari haqidagi ko'nikmalar, oila tushunchasi, undagi qadriyatlar, uni asrash, imkon qadar har ikkala taraf bir-birini qo'llashi hamda kelishib yashashliklari to'g'risida masalalar bo'yicha bilimlari kam bo'lishi bu tabiiy holat hisoblanadi. Ayni shu damda esa ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish kattalar va tajribali insonlar zimmasida bo'ladi. Ular shu chog'da o'zlarining maslahatlari hamda ko'nikmalarini bo'lishishlari talab qilinadi. Yoshlarning kelajakdagi hayotlari uchun muhim masala hisoblanadi. Ota-onalar ba'zida qizlarning xohish-istaklariga qaramasdan, ularning fikrlarini bilmasdan ish ko'rishadi. Ya'ni majburlab turmushga berish, bu ko'pchilik qizlarga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni bir-birlarga mosmi, mos emasmi bu kabi tushunchalarni bilish, ularning fikr almashishlari, ular hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bir-birini ko'rmagan tanimagan insonlar esa bir-birini tushunishga ko'pincha harakat qilishmaydi va shu sababdan ham ajrimlar soni keskin orttadi. Yokida oilaning o'zaro kelishmovchilik, muammolariga ota-onalarning hadeb o'rtaga tushib, aralashuvlari masalani chuqurlashtiradi xolos. Ba'zan muammolarni juftlikning, ya'ni tomonlarning o'zlari hal qilganliklari yaxshiroq.

Oila - bu nikoh va qon munosabatlariga asoslangan kichik ijtimoiy guruh. Oila a'zolari hissiy aloqalar, hayotning umumiyligi, axloqiy javobgarlik, o'zaro yordam bilan birlashadi. Oilaviy munosabatlar shakli va norasmiy tarkibda rasmiydir. Oila psixologiyasi oilani ma'lum bir kichik sifatida o'rganishi, shakllanishi va yo'q qilish naqshlarini o'rganadi ijtimoiy guruh ishlashi shartlari va mexanizmlari. Psixologik tahlil oilaviy hayotning turli jihatlari: oilaviy ta'limning kelib chiqishi; Nikoh va nikoh munosabatlariga tayyorlikni shakllantirish; Oilaviy rivojlanishdagi umumiy tendentsiyalar, nikoh-oilaviy munosabatlar va boshqa ijtimoiy-psixologik muammolar. Oilaning bolalarning shaxsiyatini shakllantirishga ta'siri tekshiriladi. Psixologiya nikohni kuchaytiradigan yoki beqarorlikni

kuchaytiradigan shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganadi. Yoshlarning polo-rolli ta'limiga, jinsiy aloqalarning psixologik jihatlari psixologik jihatlari, psixologik moslashuvining voyaga etmaganiga katta e'tibor qaratilmoqda Oilalarda: oilaviy aloqada bu o'zaro ta'sir, turmush tarzi, turmush o'rtoqlarning munosabatlarida rol farqlash.

Bir qiz farzandning nechi yillar davomida o'sib kelayotgan, bolaligi o'tgan hamda yaqinlari, oilasiga o'rgangan muhitdan chiqib boshqa oila tomon ketishi oson emas ya'ni boshqa bir oilaga ko'nikishi qiyin bo'ladi boshida, albatta. Mana shunday vaziyatni to'g'ri tushungan tomonlar yoshlarni, juftliklarni qo'llab quvvatlashi, ularga mehr ko'rsatib, to'g'ri yo'lga boshlashliklari to'g'ri bo'ladi. Oilaga moslashib ketgunga qadar ba'zi qiyinchiliklar, kelishmovchiliklar bo'lib turadi, muhimi buni yengib hayotda davom etish, oilani mustahkam va barqarorligini davom ettirishdir. Kimdir ham oila, ham ish, ham o'qish yumushlarini bajarishda qiynalishlari mumkin, bunday vaziyatda jufti unga yordam berishi, uni qo'llab-quvvatlashi, ya'ni vaziyatni to'g'ri tushuna olishi ham kerak. Oilada hammaning o'z o'rnini hamda vazifasi bo'ladi. Barcha yukni faqat bir tarafga yuklash, uni tushunmaslik sog'lom turmush tarziga olib kelmaydi faqatgina tomonlarga muammo tug'dirgani qoladi xolos. O'tkazilgan tajribalar shuni korsatadiki, ko'pgina xollarda qaynonalar bilan kelinlarning kelishmovchiliklari, bir-birini tushunmaslik xolatlari uchraydi. Yosh oilalardagi ajrimning asosiy xolatlaridan biri ya'ni sabablaridan bittasi shu desak adashmagan bo'lamiz. Bunday masalalar yuzasidan hozirda mahalla tomonidan "Ota-onalar universiteti", "Sog'lom turmush tarzi", "Oila saboqlari" kabi ma'rifiy institutlari joriy etishlik oiladagi, oila a'zolarini o'zaro mustahkamlash hamda .Yosh oilaning mustahkamligi, undagi ma'naviy muhitning bargarorligi yoshlarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog'liq. Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug'larning umuman sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari qanchalik aniq va ularning kundalik turmushda salomatlikni asrash ko'rikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi. Gap eng katta boyligimiz - salomatlik haqida borar ekan, qulog'imizga tez-tez chalinayotgan "sog'lom turmush tarzi" tushunchasining o'zi xususida olimlar fikrlarini tahlil etish lozim. Olimlar hamda mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, sog'lom turmush tarzining beshta asosiy sharti bo'lib, bular eng avvalo to'g'ri ovqatlanish, Jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to'g'ri tashkillashtirish hamda gigiyenik ko'nikmalarga amal qilishdir. Mana shu shartlarga rioya qilgan kishining salomatligi shubhasiz o'z qo'lida bo'ladi. Lekin ko'pincha bu shartlarga amal qilish yoshlarga ko'pincha erish tuyuladi. Hozirgi kunda ko'pchilik o'rtasida uchrayotgan kasalliklar va bevaqt o'limning asosiy sabablaridan biri oila a'zolarining sog'lom bo'lish uchun o'zlari harakat qilmayotganliklari, hali ham biron bir mo'jizaviy hayot baxsh etuvchi dori yoki shifokor bo'lishiga ishonib, yashayotganliklaridir. Albatta, zamonaviy tibbiyot fani O'zbekistonda ham rivojlanish ketdi, tibbiyot xodimlari orasida o'z kasbining ustasi bo'lgan oliyjanob insonlar ham ko'p. Lekin agar inson o'z turmush tarzini ongli tashkil etib, kasal bo'lib qolganda ham unga qarshi o'sha shifokor bilan tengma-teng ongli ravishda

turmasa, dardni yengish mushkul bo'lishini bugun ko'pchilik yaxshi biladi. Lekin buni tushinmaydigan tushunsa ham ko'proq amal qilmaydiganlar yo'q emas. Sog'liq hamma uchun muhim omil hisoblanadi. Buni vaqtida qadriga yetish hamda asrab avaylash kerak. Sog'liq bo'lmasa yashada ma'no-mazmun qolmaydi. Hech narsa ta'timaydi. Kelajak avlod uchun ham sog'lom bo'lishlik kerak. Tibbiy xizmatlardan foydalanish, o'ziga e'tiborli bo'lish, gigiyenik jihatdan toza va shunga harakat qilishlikning foydasi bo'lsa bordir lekin zarracha ham zarari yo'q inson tanasi uchun. To'g'ri turmush tarzi har bir oila nafaqat yoshlar balki barcha uchun birdek kerak. Barqarorlashtirishga olib keladi. Qiz bolaning sog'lom bo'lishi bu muhim masala hisoblanadi. Sababi undan avlod yaraladi. Bola, uning sog'ligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ona qanchalik sog'lom va baquvvat bo'lsa, undan yaralgan bola ham huddi shunday bo'ladi. Buni yosh onalar ayniqsa, xomlador ayollar tushinishlari kerak, hamda o'zlariga e'tiborni kuchaytirishlari kerak. Bunday vaqtda oila a'zolari, ko'proq uning jufti uni tushunishi hamda qo'llab-quvvatlashi unga yordam berishi muhimdir. Avval aytib o'tganimdek munosabatlarda hamda sog'lom turmush tarzda, sog'lom hayotda va oilada oila tashvishi faqat bir kishi uchun yuklanmaydi bu har taraflama bo'ladi. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish har bir a'zoning ya'ni tajribaga ega insonning burchi desak adashmaymiz. Oila- muqaddas iftihar sanaladi. Qizlar esa ushbu masalada eng muhim ahamiyat kasb etadigan a'zolardan biri hisoblanadi. Ularning shaxsiy fikrlari, dunyo qarashlari, turmushga bo'lgan ehtiyojlariyu imkonlarini boshidan ko'rib bilib keyin turmush qurishga rozilik berishlik joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson psixologiyasi va ijtimoiy hayotdagi o'rni.
2. Qizlarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoyalaniishi (Oila kodeksi)
3. Oila-muqaddas!

IQTISODIYOT YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA CHET TILINI O'RGANISH KOMPITENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

Pulatova Maftuna Kurakboyevna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
I bosqich talabasi
pulatovamaftuna1997@gmail.com

Yusupova Ozoda Ibrayim qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
I bosqich talabasi
Oyusuova85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyot sohasida tahsil olayotgan talabalarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni o'rganish yordamida sohada dunyo miqyosidagi ilmiy-amaliy axborotlar bilan bevosita tanishuvi yordamida salohiyatini yanada ko'tarish hamda kelajakda o'z kasbining yetuk vakili sifatida ingliz va boshqa xorijiy tillarda faoliyat olib borish masalasi to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: chet tilini o'rganishga ehtiyoj, til o'rganishga kompetentli bo'lish, ko'p tilli kontekst, qiziqish, motivatsion muhit;

Iqtisodchilarga chet tilini o'rganishga ehtiyoj bormi yoki ingliz tilida so'zlashmaydigan davlatda mazkur sohada ishlaydigan yoki ishlashni xohlovchilarga til o'rganishga kompetentli bo'lish lozim degan qarashlar qay darajada tegishli? Bugungi kunda har bir sohada ingliz tilini bilish ustuvor vazifa bo'lib qolsa-da, iqtisodchilarning ham tillarga bo'lgan munosabati o'zgarmoqda. Globallashtirish jarayoni iqtisodchilarning e'tiborini nafaqat tovarlar oqimining ko'payishiga, balki migratsiya oqimining kuchayishi va ularni tashkil etuvchi madaniyatlar va tillarga ham qaratganini ko'rish mumkin. Qaysi chet tilini o'rganishdan qat'i nazar, Chikago universiteti tadqiqotchilari iqtisodchilarga ona tili bo'lmagan tilda o'qish foyda keltirishini isbotladi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, chet tilida muammoni o'ylash yanada oqilona qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Chet tilini o'rganish hissiy ishtirokni kamaytirishga o'rgatadi va shu bilan qulay tavakkal qilish ehtimolini oshiradi. Bu o'quv jarayonida yaratilgan "uzatish mexanizmi"ga bog'liq. Piter Kallen, Content and Language Integrated Learning (CLIL) bo'yicha ekspert va Urbino universiteti o'qituvchisi ikkinchi tilni o'rganish miyaga ikkilikdan qanday foyda keltirishi va fikrlash jarayonining o'zi yaxshilanishini tushuntirib, bu qobiliyatning kuchliligini izohladi. Bu "biron-bir iqtisodimiz haqiqatan ham bir tilli kontekstda ishlamasligini hisobga olsak, ayniqsa muhim" deydi. U hozirgi global iqtisodiyotni "ko'p tillar va ularning tegishli rasmiy va norasmiy institutsional madaniyatlari bo'yicha faoliyat yuritadigan bog'langan joylar, mintaqalar va milliy-millatlarning integratsiyalashgan tizimi" deb ta'riflaydi[1;1.].

Motivatsion sabab	Tendension izoh
Ingliz tili — jahon tili	Dunyodagi eng keng tarqalgan til
Ingliz tilini o'rganish sizga ishga joylashishga yordam beradi	Fan, kompyuter, diplomatiya
Yangi odamlar bilan tanishish	Ingliz tili 53 mamlakatning rasmiy tili hisoblanadi
Media sanoati tili	Jahon ommaviy axborot vositalari
Internet tili	Internetdagi tarkibning yarmidan ko'pi
Butun dunyoda o'qishingiz mumkin	Butun dunyoda dasturlar ingliz tilida
Madaniyatlar bilan tanishuv	Ko'p mamlakatlarga tashrif

Jadval 1. Nima uchun ingliz tilini o'rganishingiz kerak?

Iqtisodchilar qaysi tillarni o'rganishi kerak? Rus, xitoy va arab tillari mashhur bo'lib borayotgan bo'lsa-da, ba'zilar uchun o'rganish juda qiyin bo'lib tuyulishi mumkin, ammo iqtisodchilarning Yevropa tillariga, xususan, ingliz, ispan, fransuz va nemis tillariga bo'lgan qiziqishi butun dunyoda ba'zi gibril dasturlarni yaratishga olib keldi. Dunyoda IEML (**International Economics and Modern Languages**-Xalqaro iqtisod va zamonaviy tillar), FLIE (**Foreign Language and International Economics**-xorijiy til va xalqaro iqtisod) kabi dasturlarning maqsadi iqtisod darajasining asosiy elementlarini til va madaniy ko'nikmalar bilan birlashtirishdir. Biz talabalarga jahon iqtisodiyotini o'rganishda ingliz tilini bilish darajasi yuqoriligi ustunlikka erishish imkonini beradi. Ushbu fanlararo tadqiqotlar xorijiy tillarni biladigan iqtisodchilarning yangi profilini shakllantirishga yordam bera olishi mumkinligi nazarda tutiladi.

A1 (Survival Level — Beginner, Elementary)	Yashab qolish darajasi
A2 (Waystage — Pre-Intermediate)	Maishiy bosqich darajasi
B1 (Threshold Intermediate)	O'rta daraja
B2 (Vantage — Upper-Intermediate)	O'rtadan yuqori daraja
C1 (Effective Operational)	Professional bilish darajasi

Proficiency — Advanced)	
C2 (Mastery — Proficiency)	Tilni mukammal bilish darajasi

Iqtisodiy munosabatlarsiz zamonaviy dunyoni tasavvur qilish qiyin. Iqtisodiy rivojlantirish talablari, shu jumladan, har qanday munosabatlarda til birlamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Muloqotning bir nechta tillarda olib bora olish kompetensiyasi esa muhim natijalar kafolati bo'la deya olamiz. Jumladan, ingliz tilini o'rganish masalasi ham bugungi kun talabasi uchun muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ingliz tilini bilish darajalari XX asr so'ngida ishlab chiqilgan bo'lib, chet tillarini bilish umumyevropa talablariga binoan, oltita darajaga bo'linadi. 2001 yil CEFR qo'llanishi haqida Yevropa ittifoqi tomonidan qaror qabul qilingan. CEFR ga binoan chet tilini bilish darajasiga ko'ra o'rganuvchilar uch guruhga bo'linadi, ularning har biri yana ikkiga bo'linadi:

Jadval 2. Ingliz tilini bilish darajalari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Why study Economics in a Foreign Language? By INOMICS Team 20 June 2012 b-1.<https://inomics.com/advice/why-study-economics-in-a-foreign-language-52921>
2. Кутарева Л.В. Лексико-семантический способ образования научно-технических терминов // Вопросы общего и славянского языкознания. - Днепрпетровск, 1976.
3. Сербиновская Н.В. Формирование и развитие терминологического поля "маркетинг" в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- Ростов-на-Дону, 2008.
4. Сапаева, Д. Н. (2021). ИНГЛИЗ ВА УЗБЕК ТИЛЛАРИДА ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИК АТАМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS.
5. Babajanov, K., & Sapaeva, D. (2022). MEDICAL DISCOURSE AND ITS COMMUNICATIVE SPECIFICITY. Science and innovation, 1(B7), 1394-1396.

JISMONIY TARBIYA DARSİ JARAYONIDA O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH YO'LLARI

Axrarova Munira Axatovna
O'zbekiston Finlandiya instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkil etish va o'quvchilarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya darsi, maktab o'quvchilari, jismoniy mashqlar, vatanparvarlik, jismoniy sifatlar.

Аннотация. В данной статье правильная организация занятий по физической культуре и воспитание учащихся в духе патриотизма является одним из актуальных вопросов современности.

Ключевые слова: урок физкультуры, школьники, физические упражнения, патриотизм, физические качества.

Abstract. In this article, the correct organization of physical education classes and education of students in the spirit of patriotism is one of the urgent issues of today.

Key words: Physical education lesson, schoolchildren, physical exercises, patriotism, physical qualities.

Respublikamizda ta'lim sohasida butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma'noda o'tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'limtarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884 sonli Qarori takomillashgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, davlat talablari, yangi o'quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan o'quv muassasalarida, zamonaviy o'quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi

Jismoniy tarbiya darslari o'quvchilar shaxsini tarbiyalashda katta ta'sir etish imkoniyatiga ega. Bu imkoniyatlar darsni tashkil etilishdan boshlanadi, agar o'qituvchi bu jarayonni boshqarsa, tarbiya vazifalari qo'yilsa, bu holda ijobiy natijalarga erishadi, agar bu jarayon o'z xoliga qo'yib qo'yilsa, xatto salbiy samara olish mumkin.

Darslarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, ba'zi bir o'qituvchilar o'quvchilar psixologik tayyorlashga ahamiyat bermaydilar. Bunda asosiy o'rinni o'quvchilarni mashqni bajarishi, o'z holatini mustaqil boshqara bilishiga jalb etishlik egallashi kerak. Masalan, rejalashtirilgan jismoniy yuklarni bajarishga irodani tarbiyalab vujudga kelgan tolishni va qo'rquvni yengib o'tishga butun kuchni sarflash zarur.

Darsda asosiy e'tiborni o'quvchilarni jismoniy takomillashuv talablariga extiyoj hosil qilishga qaratiladi. Extiyoj – bu shaxsni ma'lum faoliyatlariga jalb etish biln harakterlanib, yashash shartini zaruriyati, sifatida idrok qilinadigan, psixologik holatdir.

O'quvchilar bilimlarni, ko'nikma va malakalarni egallab, o'zaro bir-biri bilan, o'qituvchi bilan musobaqada bo'lib, o'z-o'ziga xizmat qilishni, intizomga, mehnat qilishga, jamiyat mulkini saqlashga o'rganadilar. Bunday munosatlar juda ko'p va ular doimo o'qituvchining diqqat e'tiborida bo'lishi kerak. O'qituvchi ularni ko'radi, to'g'rilaydi, nazorat qiladi, zaruriy tomonga yo'lantiradi. Bu muomala va munosabatlarning kutilmaganda yuz beradigan intizom formalariga e'tibor berib, ahloqiy rivojlantirishlari uchun bor imkoniyatdan foydalanmogi kerak.

Pedagog bolalarni tabiatga nisbatan salbiy munosabatini ko'ra bila turib befarq qaramasligi, mashqni yaxshi bajara bilmagan o'quvchi ustidan yo'l qo'ymasligi kerak. Darsni tashkil etishning an'anaviy usuli katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, qaysiki o'qituvchi ma'lum talablarni qo'yib butun jarayonni ko'z oldida to'tishi zarur.

Bu talabalar asosan quyidagilardan iborat:

- darsga sinchiklab tayyorgarlik ko'rish, darsda mehnatga bo'lgan munosabatni vujudga keltirish, o'qish vaqtida javobgarlikni xis ettirish va ehtiyotkorlik muomalasini vujudga keltirish;
- darsda birgalikdagi faoliyatning muvaffaqiyat sharti bo'lgan mehnat intizomini saqlash;
- o'rgatishni samaradorligi uchun zarur bo'lgan o'zaro munosabat, o'zaro hurmatni etik me'yorlarini saqlash;
- jihozlarga, asbob anjomlarga jamiyatni moddiy mulki ehtiyotkorlik bilan qarashga o'rgatish;
- pedagogni topshiriqlarini benuqson bajarish, saflash va qayta saflash, guruh faoliyatini muvaffaqiyatli sharti ekanligini to'g'ri tushinish;
- o'rtoqlari muvaffaqiyatsizliklari ustidan qo'lishni ka'tiyan taqiqlash.

An'analarni o'rgatish uchun birinchi darslar qulay sharoit yaratadi. Bu darslarda bolalar o'qituvchini har qanday tartib intizom taklifini qabul qilishga tayyor turadilar.

Shunday qilib, darsda tarbiyaviy maqsad bo'lgandagina u dars tarbiyalaydi. Ammo bir dars jarayonida xech qachon maqsadga erishib bo'lmaydi, chunki bir darsda shaxsiy sifatlar xech qachon shakllanmaydi. Ularni amalga oshirish uchun amaliyotni ko'rsatishiga qaraganda vazifalarni o'quvchilar orasida xaqqoniy to'g'ri taqsimlab shu vazifalarni 6-8 darslar davomida takrorlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda muntazam ravishda, qo'yilgan talablarni so'zsiz bajarilishini talab etish, unga sharoit yaratib berish hamda o'quvchilar faoliyatlarini doimo baholab borish zarur.

Darsning tarbiyaviy imkoniyati o'quv materialini mazmunidan kelib chiqadi. Saf mashqlari, birgalikda bajarilgan harakat faoliyatlari intizomni tarbiyalaydi. O'yinlar bolalarda o'zaro aktiv munosabatni oshiradi, demak o'rtoqlik, jamoatchilikni tarbiyalaydi. Harakatli o'yinlarni tarbiyaviy imkoniyatlari ularni mazmunidan iboratdir. Masalan, "Kosmonavtlar", "Otlik sportchilar" tengqurlariga nisbatan diqqat muomalasini tarbiyalaydi.

O'qituvchining sportchilarni qahramonliklari haqidagi suhbatida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlarni e'lon qilganida darsning me'yori buzilmasligi kerak.

Vazifalarni qo'yish jarayonida o'quvchilarda ularda qanday bajarish haqida aniq tushuncha hosil qilish zarur. Shundagina o'quvchilarga qo'yilgan vazifalarga nisbatan ongli muomalal va faolligi ortadi. Agarda qo'yilgan vazifalarni har xil usullar bilan hal etish imkoni bo'lsa, ularni aytib o'quvchilarga eng yaxshi variantlarini tanlab olishlari uchun berishlari kerak. Ayniqsa buni yuqori sinqlarda dars o'tganda amalga oshirish zarur.

Fodalanilgan adaboyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4884 sonli Qarori. <http://lex.uz>
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., O.,z DJTI, 2005 yil - 300 b.
3. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sportsog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T.: 2005 y. – 235 b.
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O.,quv qo'llanma. O.,zDJTI, T.: 2005, 171 b.
5. Юнусова Ю.М. Организация и методика физической культуры в общеобразовательных школах республики Узбекистана. -Т.:2002. С. 120.
6. Шох, М. Круговая тренировка (Теоретические, методические и организационные основы одной из современных форм использования физических упражнений в школе и спортивной тренировке). - 2-е изд., стер. - Москва: Спорт, 2021 .- 217 с.
7. Медведев, В. В. Метод круговой тренировки как форма физической подготовки студентов. - Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2019. – № 44 (282). – С. 312-313.
8. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. O.,zDJTI. T.: 2005, - 280 b.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MUSIQA SAN'ATINING FAOLIYATI

Turdimurodov Nuriddin

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti

“Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasi

Magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida musiqa san'atining faoliyati haqida ba'tafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekistonda madaniy hayot, adiblar, kompozitor, bastakor, S. L. Ginzburg, B. A. Struve, X. S. Kushnaryov, Tolibjon Sodiqov, Nabijon Hasanov.

Annotation. This article provides detailed information about the activities of music art during the Second World War.

Keywords: cultural life in Uzbekistan, writers, composer, composer, S.L. Ginzburg, B.A. Struve, H. S. Kushnaryov, Talibjon Sadikov, Nabijon Hasanov.

Urush yillarida xalqlarning iqtisodiy turmushlari mushkul kechishiga qaramay, O'zbekistonda madaniy hayot va musiqiy yo'nalishlar davom ettirildi. Mamlakatdagi barcha teatr va konsert brigadalari, musiqa muassasalari, o'quv bilim maskanlari, konservatoriya hamda shu kabi madaniy muassasala o'zlarining faoliyat yo'nalishlarini urush mavzusiga yo'naltirdilar. Adiblar, kompozitor va bastakorlar o'zlarining ijodida vatanparvarlik pafosini ochib berishga zo'r g'ayrat bag'ishladi. Musiqalarda ham hatto vatanparvarlik ovozlari sezilar, zambaraklar tovushi bilan raqobat qilar, fashizmga qarshi kurashib, uning kirdikorlarini fosh etishga bor kuch-g'ayratini sarflar edi.

1940-yillar xalqimizning turmush tarsi va hayotida og'ir kunlar sifatida o'tgan bo'lsa ham, madaniyat va ma'rifat sohasida bir qadar yangi o'quv muassasalari, madaniy-oqartuv va san'at maskanlari ochildi. Jumladan, 1941-yili Toshkent xoreografiya o'quv bilim yurti ochilishi katta voqea bo'ldi. Mazkur xoreografiya maktabi xodimlari va ularning tarbiyalanuvchilari fronlarda jangchilar uchun ko'plab gastrollar uyushtirish tashabbuskori bo'ldi. 1943-yili Muqimiy nomidagi Respublika davlat davlat musiqali drama va musiqali teatr uchun hashamatli, komediya teatriga moslashgan, yangi hashamatli bino qurib berildi 1943-yili O'zbekiston FA va akademiyaning ba'zi ilmiy muassasalari tashkil etildi. O'zbekiston san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutining huzurida 1943-yildayoq o'zbek xalq cholg'u asboblari rivojlantirish uchun mo'ljallangan alohida laboratoriya ochildi. Ushbu laboratoriyada musiqashunos Ashot Ivanovich Petrosyans bilan birgalikda Leningrad konservatoriyasining professorlari¹: S. L. Ginzburg, B. A. Struve va X. S. Kushnaryovlar ilmiy ish olib borishdi. 1944-yilda Toshkentda davlat teatr va rassomchilik institutiga asos solindi. Mamlakatimizning

¹ Urush yillari Leningrad konservatoriyasi Toshkentga evakuatsiya qilingan edi

viloyatlarida va yirik shaharlaridagi markazlarda o'zbek, Rossiya dramali teatrlari, o'zbek musiqa drama va komediya teatrlari ixlosmandlarga ilmiy-ma'rifiy va madaniy xizmatlar taqdim etdi. Teatrlar arenalarida urush mavzusiga atalgan, vatan tuyg'usi va inson qadrini ulug'lovchi g'oyalar bilan yo'g'rilgan konsert dasturlari ijrosi davom etdi. Bular qatorida tarixiy mavzularga ham murojaat qilindi. "Tohir va Zuhra" (S. Abdulla pyesasi, T. Jalilov musiqasi), "Muqanna" (H. Olimjon pyesasi, Yu. Rajabiy va G. Mushel musiqasi), "Qo'chqor Turdiyev" (Sobir Abdulla va Chustiy pyesasi, Yunus Rajabiy musiqasi), musiqali drama sahna asarlari tomoshabinlarga taqdim etildi. Xalqning ma'naviy tomonlama ta'minlanishi uchun

Toshkent shahrida ikkita: opera va balet teatri shu bilan birga Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahrida maxsus davlat musiqali drama teatri o'z faoliyatlarini yo'lga qo'ydi. Ta'kidlash lozimki, "Yangiyo'l teatri"da 1942-yilda birinchi o'zbek qahramoni andijonlik jangchi "Qo'chqor Turdiyev", 1944-yilda esa tarixiy mavzuda "Muqanna" nomli musiqali dramalarining ilk taqdimoti amalga oshirildi. Teatrlarda sahna asarlarini havola etishda, konsert dasturlarini tayyorlashda va ularning namoyishini tashkil qilish borasida Ukraina, Belorusiya, Moskva va Leningrad kabi shaharlardan tashrif buyurgan istedadli sahna aktyorlarini hamda musiqachilarining qatnashishlari musiqiy ijrochilik saviyasini ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Zalvorli urush yillarida ham O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston xalq artisti, bastakor Tolibjon Sodiqov boshchiligida, jamiki san'at ahlining markaziga aylanib borar edi. Ushbu mavzu to'g'risida musiqashunos I. N. Karelova "Песня и романс"² maqolasida bunday ma'lumot beradi: "O'zbekiston kompozitorlar uyushmasida har kuni endigina yozilgan qo'shiq yoki yirik asarlarni eshitib bo'lgach muhokama qilinardi.

Urush yillarida bastakor Nabijon Hasanov ijodi ham ancha samarali amalga oshirildi. 1942-1944-yillarda o'tkazilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston san'at haftaliklarida ham juda faol ishtirok etardi. Urush yillarida sahna yuzini ko'rgan "O'zbekiston qilichi" spektakliga Nabijon Hasanov musiqa bastaladi.³

Urush alangasi avj olgan vaqtda Leningrad, Ukraina, Belorusiyalardan tashrif buyurgan kompozitorlar, musiqashunoslar, qobiliyatli cholg'uchilar qatnashar edilar va o'zlari bastalagan musiqiy asarlarni tomoshabinlarga taqdim etardilar. Ushbu kompozitorlar tomonidan yaratilgan yaratilgan ijrolarning ko'plari urush, vatan, inson qadr-qimmatini kabi masalalarni yoritib berishda ahamiyatli edi. Ijodiy muhokamalar esa juda qizg'inlik bilan tanqidiy ruhda kechar edi. Urush yillarida ko'plab "Mudofaa" va lirik qo'shiqlar yozildi. Ushbu qo'shiqlardan eng jozibalilari ijrochilarga tavsiya etilib, hatto ularning ayrimlari nashr ham qilingan edi. Ular ichida quyidagi qo'shiqlarni nomlarini keltirish mumkindir: bastakor T. Jalilovning kompozitor M. Shteynberg bilan birgalikda yozilgan "O'zbekiston doim tayyor" (T. Fattoh so'zlari), M. Ashrafiyning "Kel", "Qasam", "Arzimni yorga ayting" (Uyg'un she'rlari); M. Burhonovning "Jangchilar qo'shig'i", xor

² "Музыкальная культура Советского Узбекистана". Т.: 1955. // "Песня и романс".

³ A.JABBOROV, S.BEGMATOV, M.AZAMOVA. O'ZBEK MUSIQASI TARIXI. T-2008., 48-bet

solistlar uchun yozilgan “Ey ulug’ ustoz” (T. Fattoh so’zi), “Ishqida” (Uyg’unning so’zi); kompozitor M. Xarratovning “Sevimli Vatan”, “Jangovor qo’shin” (Davronga tegishli so’zlar) shuningdek, “Yigitlar” (Uyg’unning so’zlari); kompozitor Sh. Sohibovning “Bayrog’imiz” (T. Fattoh qalamiga mansub), “Vatan o’g’loni”, “Ey dilbar” (Chustiy ijodidan), “Dilnavoz”, (A. Navoiy so’zi) singari xor uchun moslangan qo’shiqlar; M. Leviyevning “O’zbek o’g’li”, “Biz dohiy farzandlari”, “Maydondamiz” (M. Shayxzoda so’zlari) va “Vatan chaqirmoqda” (T.Toia so’zi); D. Zokirovning “Ol qasos”, “Jangda bardam bo’l” (S.Abdulla so’zi); bastakor Nabijon Hasanovning “Nayzabardor” va “Ofarin” (T.Fattoh so’zlari); S.Yudakovning “Qonga-qon, jonga jon” (T.Fattoh so’zi), “Otlig askar qo’shig’i” (Mirtemir so’zi) kabi qo’shiqlar misol bo’la oladi. O’zbek musiqali teatr jamoalari, kompozitor va dramaturglar bilan hamkorlikda urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun ijodiy ish faoliyatlarini g’alaba uchun bag’ishladilar. Jumladan, urushning birinchi oylaridayoq Muqimiy nomidagi respublika musiqali teatr jamoasi “Qurbon Umarov” nomli musiqali sahna asarini muxlislarga taqdim etishgan. Ushbu sahna asarini Sobir Abdulla hamda Chustiy, musiqasini esa To’xtasin Jalilov va G.Shperlinglar yozishgan. Keyingi yillarda yana bir qancha sahna asarlari dunyo yuzini ko’rdi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: “Qasos” Yunus Rajabiy hamda B. Nadejdinlar musiqasi asosida, Sh. Tuyg’un hamda Amin Umariylarning pyesasi, “Nurxon” To’xtasin Jalilov musiqasi, Komil Yashin asari asosida “Oftobxon” X. To’xtasinov hamda G. Mushellar musiqasi, Komil Yashin asari, O’zbek opera hamda balet teatrida ham urush yillarida ko’plab nodir asarlar tomoshabinlarga havola etildi. Ularga quyidagilarni misol keltirish mumkin: “Davron ota” T. Sodiqov bilan A. Kozlovskiylar musiqasi, Sobir Abdulla, Chustiy va Komil Yashinlar asari asosida, “Sherali” Muxtor Ashrafiy, S. Vasilenko, A. Kozlovskiylar musiqa mualliflari, H. G’ulom, B. Xalilov asari; “O’zbekiston qilichi” T. Sodiqov, Mutavakkil Burhonov, S. Vaynberg, T. Jalilov, N. Hasanov, A. Klumanyovlar musiqalari asosida, S. Abdulla, H. Olimjon, O. Uyg’un, N. Pogodinlar so’zi asosida.⁴

Urush yillarida Toshkent viloyati Yangiyo’l drama teatrida ham quyidagi sahna asarlari tomoshabinlarga taqdim etildi: “Qo’chqor Turdiyev” (Sovet Ittifoqi qahramoni) Yunus Rajabiy musiqasi, Sobir Abdulla hamda Chustiy asarlari, “Muqanna” Yunus Rajabiy hamda G. Mushellar musiqasini bastalagan, H. Olimjon pyesasi asosida sahnalashtirilgan. Urushning birinchi yilida opera hamda balet teatr jamoalari quyidagi asarlarni sahnalashtirdi: “Mirzo Ulug’bek” A. Kozlovskiy musiqasi asosida, G. Gerus hamda A. Kozlovskiylar librettosi, “Mahmud Torobiy” O. Chijko musiqasi, Oybekning opera librettosi.

Shuningdek urush mavzusiga hamohang tarzda sahnalashtirilgan-”Ледовое побоище” (“Muz ustidagi jang” asari) G. Taranov musiqasi asosida, G. Taranov hamda N. Varlamov opera librettosi; S. Vasilenkoning “Oqbilak” nomi bilan atalmish baletlari sahnada jonlantirildi.

⁴A.JABBOROV, S.BEGMATOV, M.AZAMOVA. O’ZBEK MUSIQASI TARIXI. 54-bet, T-2008

Bastakor J. Bizening muallifligidagi “Karmen” nomli operani shoirimiz Mirtemir o'zbek tiliqa birinchi marta tarjima qilib tomoshabinlarga havola qilgan. katta madaniy voqeaga aylandi.

Urushning davomida simfonik va vokal - simfonik musiqa ham rivojlanib keldi. Ushbu borada bastakorlar milliy asarlar yaratishda davom etishdi. Kompozitsiya g'oyalarini o'zlashtirib borishda ijobiy izlanishlar va yaxshi natijalarni etdilar. Bu janrlarda yaratilgan san'at asarlari g'oyaviy maqsadi bilan davr talabiga javob bera oladigan qahramonlik - jasorat va dushmanga nafrat his-tuyg'ularini uyg'unlashtiradigan yirik musiqiy asarlar sifatida vujudga kelar edi.

Soha rivoji davomida V. A. Uspenskiyning “Muqanna” (1943-yil) nomi ostida besh qismdan iborat (“Karvon”, “Olovga sig'inish”, “Irodaga qarshi raqs”, va

“Guloyimning chiqishi”) syujetlari e'tiborga molikdir. Ushbu asar H. Olimjonning “Muqanna” dostoni ta'siri ostida yozilgan edi. G. A. Mushel muallifligidagi 1941-1942-yillarda yaratilgan ikkita simfoniyasi va “Farhod qurilishi” (A. Lagutin so'zi) nomidagi kantatasi, M. Ashrafiyning (S. Vasilenko hamda A. Kozlovskiylarning tahririda ostida) yaratilgan “Qahramonlik simfoniyasi” (1943-yil), “Zafarlarga Ofarin” nomidagi ikkita simfoniyasi hamda “Tantanali marsh”; M. O. Shteynbergning kompozitor K. Jabborov bilan birgalikda yaratilgan “Simfoniya-rapsodiya”si, “Ilg'or” uvetryurasi, V. Voloshinovning “O'zbekcha syuita”si, G. Mushelning ikkinchi fortepiano konserti, V. Levitinning “Muqaddas urush” (“Священная война”) oratoriyasi; A. Kozlovskiy hamda B. Arapovlarning “Jaloliddin Xorazmiy” (O. Kamtar so'zi) oratoriyalari (1944-yil). S. Yudakov muallifligidagi “G'alaba” (G'. G'ulom so'zi qalamiga mansub) kantatasi kabi asarlar misol keltirish mumkin.

Ta'kidlash joizkiki, urush yillarida Toshkent viloyatidagi hamma teatr shuningdek, konsert jamoalari sayyor konsert hamda spektakllar berib borishdi.

Ularning urush yillarida badiiy samarasi 4000dan ortiq konsert, spektakllar adabiy suhbatlar va madaniy kechalarni tashkil etdi.

